



THE USE OF INTERACTIVE TECHNIQUES IN THE TEACHING OF THE SUBJECT OF THE CROSS-SECTION AND VERB

Narbayeva Khosiyat Adilbek daughter

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz Faculty of
Turkic languages 2nd Stage Student of Uzbek language education in
foreign language groups

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10972612>

ARTICLE INFO

Received: 08th April 2024

Accepted: 14th April 2024

Online: 15th April 2024

KEYWORDS

*Fe'l, cutting, interfaol method,
grass cutting, fe'l cutting.*

ABSTRACT

*The effect of using interactive techniques in teaching the
subject of the section. The subject of the verb is
considered one of the largest in linguistics. The subject of
the verb and the cross-section are intertwined, and when
learning them, students face a number of difficulties.
Overcoming such difficulties will depend on the teacher's
skill in applying methods.*

KESIM VA FE'L MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Narbayeva Xosiyat Adilbek qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli
guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10972612>

ARTICLE INFO

Received: 08th April 2024

Accepted: 14th April 2024

Online: 15th April 2024

KEYWORDS

*Fe'l, kesim, interfaol metod, ot
kesim, fe'l kesim.*

ABSTRACT

*Kesim mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan
foydalanishning samarasi. Fe'l mavzusi tilshunoslikdagi
eng yirik mavzulardan biri hisoblanadi. Fe'l va kesim
mavzusi bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ularni
o'rganishda o'quvchilar bir qancha qiyinchiliklarga duch
kelishadi. Bunday qiyinchiliklarni bartaraf qilish
o'qituvchining metodlarni qo'llash mahoratiga bog'liq
bo'ladi.*

Mazmunli va chiroyli nutq tuzishda eng ahamiyatli narsa so'z turkumlaridan to'g'ri foydalanish hisoblanadi. Sizda mazmunli fikrlar ko'p, ammo, uni yozma nutqda yoki og'zaki nutqda bo'lsin to'g'ri ifodalay olmas ekansiz, u tinglovchiga yetib bormaydi. Gap tuzish mahoratini esa o'quvchilar boshlang'ich sinflardan boshlab o'zlashtira boshlashadi. Fe'l so'z turkumi mavzusi ham boshlang'ich sinflardan boshlab o'rgatiladi. Tilshunoslikning "Sintaksis" bo'limida esa kesim mavzusini o'tish bilan davom ettiriladi. Kesim gapning asosi hisoblanadi ya'ni kesim bo'lmasa gap ham bo'lmaydi. Fe'l va kesimning bir- biriga o'xshash jihatlari ham farqli jihatlari ham bor. Bu jihatlari to'xtalishdan oldin fe'l so'z turkumi haqida gaplashamiz. Bilamizki, o'zbek tilida oltita mustaqil so'z turkumi mavjud. Fe'l shu so'z turkumlar tarkibiga kiradi. Fe'l harakat yoki holatning bajarilishni bildirib nima qilmoq? nima



bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'ladi. ¹Predmetning harakat-holat belgisini anglatadigan leksemaga fe'l leksema, bunday leksemalar birgalikda fe'l leksemalar turkumi deyiladi. Fe'l leksemalar turkumi ot leksemalar turkumidan keyin ikkinchi yetakchi turkum bo'lib, ravish turkumi leksemalari asosan shu turkum leksemalarining belgisini anglatadi. Fe'l leksemalar predmetning kel-, ber- kabi turli harakatini anglatadi, shuningdek uxla-, gulla- kabi holatini ham harakat sifatida bildiradi. ²Holat ifodalash boshqa so'z turkumiga ham xos. Biroq fe'lda u bir tusdan boshqasiga o'tish tarzida. Masalan, Daraxtlar yam – yashil gapida sifat kesim (yam-yashil) turg'un holatni ifodalamoqda. Daraxtlar ko'kardi gapida esa holat jarayon sifatida, bir tusdan ikkinchisiga o'tish tarzida yuz bermoqda. Fe'l mavzusi o'zbek tilidagi eng katta mavzu hisoblanadi. O'quvchilarga bu mavzuni turli xil interfaol metodlar bilan o'rgatsak katta samara beradi.

Boshqa mustaqil so'z turkumlari fe'l vazifasida kelolmasligi mumkin, ammo, kesim vazifasida keladi. Fe'l morfologiya bo'limida o'rganilsa, kesim sintaksis bo'limida o'rganiladi. ³Kesim asosan fe'lning tuslovchili shakli bilan ifodalanadi. Kesim gapning mazminiy markazi hisoblanadi. Kesim bo'lmasa gap ham bo'lmaydi. Kesim barcha mustaqil so'z turkumlari bilan ifodalanadi. Bu ifodalanishiga ko'ra ularni ikki turga ajratishimiz mumkin fe'l kesim va ot kesim. Agar kesim ravishdosh va fe'lning sof shakli bilan qo'llanilsa u fe'l kesim, ot, sifat, son, olmosh, ravish va taqlid so'z bilan ifodalansa u ot kesim bo'ladi. Mustaqil so'z turkumlari bilan ifodalanoshi: *Ot bilan: Odilbek haqiqiy yigit. Sifat bilan: Sirti yaltiroq, usti qaltiroq. Son bilan: Ikki karra ikki – besh. Olmosh bilan: Sen aytgan hamma narsa shu yerda. Ravish bilan: Daryoda baliqlar juda ko'p. Modal so'z bilan: Sizga aytadigan boshqa gapim yo'q. Fe'l kesim: Madina bozorga borib keldi.* ⁴Kesim – tasdiq- inkor, zamon, modallik, shaxs – son (ya'ni kesimlik kategoriyasi) ma'no va shakllariga ega bo'lgan so'z, gap markazini tashkil qiluvchi bo'lak.

Nutqimizda kesimsiz gap bo'lishi mumkin emas. Gapda kesim bo'lmasa, u o'zbek tili (nutqi) uchun to'liqsiz gap. Kesim gapning shunday konstruktiv bo'lagiki, u o'zini shakllantiruvchi grammatik kategoriya – kesimlik kategoriyasi voqelanishiga ega. Shu sababdan hamma vaqt gapda kesim tarkibi murakkab. Kesim sodda va qo'shma kesimlarga ajratiladi. Bitta so'zdan iborat bo'lgan kesim sodda kesim, ikki va undan ortiq so'z bilan ifodilangan kesim qo'shma kesim hisoblanadi. Masalan: Bahor kelishi bilan moychechakalar ochildi gapida *ochildi* sodda kesim, Xadicha Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini o'qib chiqdi gapidagi *o'qib chiqdi* qo'shma fe'lga misol bo'ladi.

Kesim va fe'l mavzularini takrorlashda interfaol metodlardan biri hisoblangan "Ajurli arra" metodidan foydalanish samarali usul hisoblanadi. ⁵"Ajurli arra" (fransuzcha "ajour" – bir yoqadan ikkinchi yoqa o'tgan, ikki tomoni ochiq) strategiyasi o'quvchi (talabalar)ga yaxlit

¹ Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili -Toshkent: Universitet, 2006

² Sayfullayeva. R., Mengliyev. B., Boqiyeva. G., Qurbonova. M., Yunusova. Z., Abuzalova. M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: 2009

³ Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili -Toshkent: Universitet, 2006

⁴ Sayfullayeva. R., Mengliyev. B., Boqiyeva. G., Qurbonova. M., Yunusova. Z., Abuzalova. M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: 2009

⁵ Ro'ziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent 2013



muayyan mavzuni bir nechta qismlarga ajratish orqali mohiyatini yoritish imkoniyatini yaratadi.

Bu metodni qo'llashdan oldin o'quvchi yoki talabalarni metod mohiyati bilan tanishtiramiz va talabalarni o'quvchilarni guruhlariga ajratamiz. Kesim va fe'l mavzularining qismlarini alohida qog'ozlarga yozamiz va guruhlariga tarqatamiz. Bu qog'ozlarga quyidagi kesim va fe'l mavzularini kiritishimiz mumkin.

Fe'l mavzusi bo'yicha:

1. Harakat va holat fe'llari
2. O'timli va o'timsiz fe'llar
3. Fe'l nisbatlari: Aniq nisbati
4. O'zlik nibati
5. Majhul nisbati
6. Orttirma nisbat, Orttirma nisbat qo'shimchalarining ishlatilishi
7. Birgalik nisbati
8. Fe'lning vazifa shakllari. Harakat nomi
9. Sifatdosh. O'tgan zamon, hozirgi va kelasi zamon sifatdoshlari
10. Ravishdosh
11. Ko'makchi fe'llar

Kesim mavzusi bo'yicha

1. Fe'l kesim
2. Ot kesim
3. Sodda kesim va murakkab kesim
4. Murakkab ot kesimlarning tuzilishi
5. Kesimning birikmalar va iboralar bilan ifodalanishi.

Yuqorida ko'rsatilgan mavzularni qog'ozlarga yozishimiz mumkin. O'quvchilar qog'ozda berilgan materiallardan foydalanib topshiriqlarni bajarishadi. Har bir guruh sardor tanlaydi va bu sardorlar boshqa guruhlariga o'quvchilarga mavzu va uning mohiyatini tushintiradi. Bu metodni qo'llash orqali o'quvchilarning gurrub bo'lib ishlash qobiliyatini va yana o'zlashtirgan bilimlarni boshqalarga yetkazib berish qobiliyatini ham rivojlantiramiz. Fe'l va kesim mavzusi murakkab bo'lganligi sababli metod qo'llash o'quvchi yoki talabalarning mavzuni o'zlashtirishi va eslab qolishi osonlashadi.

References:

1. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006
2. Ro'ziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent 2013
3. Sayfullayeva. R., Mengliyev. B., Boqiyeva. G., Qurbonova. M., Yunusova. Z., Abuzalova. M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: 2009
4. To'xliyev. B., Yusupova. Sh., Ziyodova. T., Oxunjonova. O., Jumashev. D. O'zbek tilini o'qitish metodikasi – Toshkent: 2012